

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**5-2025
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.Asatulloeva

Professional so'zlar ishtirok etgan maqol va frazeologizmlarning pragmatik tahliliga doir 5

R.A.Ortiqov

Ingliz mifologiyasini talabalarga o'qitishning zamonaviy asoslari 10

Q.V.Yo'ldor

O'zbek va qozoq xalq maqollarida kvantitativlik 14

A.G.Sabirdinov

Mirtemir she'rlarining milliy jozibasi 19

D.G'.Gafurova

Shamol-sarlavhali asarlarda inson va jamiyat tasviri 22

TILSHUNOSLIK

M.T.Abdupattoev

Muallif idiosilining lingvopoetik xususiyatlari 27

H.X.Алиева

Актуальность изучения диалектной лексики английского языка 32

H.X.Алиева

Интеграция традиционных и современных методов в исследовании лексико-семантических особенностей диалектов английского языка 35

H.X.Алиева

Региональное разнообразие английского языка и диалектное выравнивание в современной англии 41

L.A.Abdullayeva

Abbreviatsiya muloqot jarayonida til birliklarini tejash vositasi sifatida 46

M.R.Allamberganova

Kultegin yozma yodgorligida leksik takrorlarning ishlatilishi 51

U.M.Askarova

Birikma-kiritmalar va gap kiritmalar (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida) 56

A.A.Qosimov

Metaphorical dimensions: exploring the cognitive and cultural foundations of figurative language 61

M.E.Qobilov

Surxondaryo viloyati Qipchoq shevasi antroponimikasida enantiosemiya 69

G.X.Ismoilova

O'zbek va ingliz tillarida "farsihta/angel" va "shayton/devil" leksemalari ishtirok etgan maqollarining tahlili 73

U.M.Askarova

Avtomatik tahrir dasturlarining savodxonlikni rivojlantirishdagi o'rni 78

J.A.Akhrorova

Metonymy and its relation with discourse 81

Sh.U.Nosirova

Ingliz huquqiy matnlari tili leksik-semantik va grammatik xususiyatlarining lingvokulturologik jihatdan tahlili 84

Sh.U.Nosirova

Ingliz kasbiy muloqotida pragmatik vositalarning o'rni 89

U.M.Askarova, D.X.Xolbekova

Matn tuzilishida tinish belgilarining o'rni va vazifalari 93

A.R.Kosimov

So'zlarning shaxsga hissiy ta'siri xususiyatlari 97

Г.Н.Давлятова, Х.Б.Хотамова

Идиоматические выражения в свете лингвокультурологии 101

З.С.Аманова

Анализ культурно-исторических смыслов символов и знаков в современном информационном пространстве 105



UO'K: 811.511.131'367.625+82(575.1)-94

BIRIKMA-KIRITMALAR VA GAP KIRITMALAR
(Ozod Sharafiddinov asarlari misolida)**СОЕДИНЕНИЯ И РЕЧЕВЫЕ ВСТАВКИ**
(На примере произведений Азода Шарафиддинова)**COMPOUNDS AND SPEECH INSERTS**
(In the example of the works of Azod Sharafiddinov)**Askarova Umidaxon Maxamadjon qizi** 
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi**Annotatsiya**

Kiritma konstruksiyalar adabiy tilga dastlab og'zaki – so'zlashuv nutqidan kirib kelgan bo'lsa-da, hozirgi yozma adabiy tilimizda ularning yangi semantik-struktur tiplarining yuzaga kelganligini, adabiy tilning barcha janr va uslublarda keng qo'llanayotganligini, funksional doirasining kengayganligini ko'ramiz. Bu, albatta, hozirgi o'zbek adabiy tilining beqiyos rivojlanishi bilan bog'liqdir. Biz mazkur ushbu maqolamizda bevosita O.Sharafiddinov asarlarida uchraydigan kiritmalarning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilamiz.

Аннотация

Хотя вставные конструкции первоначально пришли в литературный язык из устной – разговорной речи, в современном письменном литературном языке наблюдается появление новых их семантико-структурных типов, их широкое использование во всех жанрах и стилях литературного языка, расширение их функционального охвата. Это, безусловно, связано с беспрецедентным развитием современного узбекского литературного языка. В данной статье мы попытаемся проанализировать особенности вставных конструкций, встречающихся непосредственно в произведениях О. Шарафиддинова.

Abstract

Although inserted constructions originally entered the literary language from oral and colloquial speech, the contemporary written Uzbek literary language demonstrates the emergence of new semantic and structural types of such constructions, their widespread use across all genres and styles, and the expansion of their functional scope. This phenomenon is, of course, associated with the remarkable development of the modern Uzbek literary language. The present article aims to analyze the specific features of insertions found in the works of O. Sharafiddinov.

Kalit so'zlar: kiritma konstruksiyalar, og'zaki nutq, yozma adabiy til, semantik-struktur tiplar, funksional doira, uslubiy xususiyatlar, zamonaviy o'zbek adabiy tili, sintaktik birlik, tahlil.

Ключевые слова: вставные конструкции, устная речь, письменный литературный язык, семантико-структурные типы, функциональный охват, стилистические особенности, современный узбекский литературный язык, синтаксическая единица, анализ.

Key words: inserted constructions, oral speech, written literary language, semantic-structural types, functional scope, stylistic features, modern Uzbek literary language, syntactic unit, analysis.

KIRISH

"Kirish bo'laklar" deyilganda, asosan, gap ichida qo'shimcha ma'lumot beruvchi yoki gapning mazmunini izohlovchi qismlar tushuniladi. Bularga kirish so'zlar va kirish gaplar kirishi mumkin. Kirish bo'laklar gapning ayrim bo'laklari yoki umumiy mazmuniga bo'lgan izoh yoki modal yoxud emotsional munosabatlarini ifodalaydi. Ya'ni kirish so'zlar gap bilan sintaktik bog'lanmagan bo'lib, fikrning munosabatini, umumiy bahosini yoki kimga qarashli ekanligini bildiradi. Kirish gaplar esa asosiy gapning mazmunini to'ldiruvchi yoki izohlovchi qo'shimcha gaplardir.

Kirish bo'laklar gapning ayrim bo'laklari yoki umumiy mazmuniga bo'lgan izoh yoki modal yoxud emotsional munosabatlarini ifodalaydi.

ASOSIY QISM

Birikma-kiritmalar sodda so'z birikmalari orqali ham, murakkab qo'shma so'z birikmalari orqali ham ifodalanishi, shuningdek, uyushgan holda va alohida so'z yoki gap bilan birgalikda qo'llanishi mumkin. Bunda kiritma vazifasida qo'llangan birlik erkin yoki turg'un so'z birikmalaridan

TILSHUNOSLIK

iborat bo'ladi. Ammo turg'un so'z birikmalarining kiritma vazifasida qo'llanishi juda kam uchraydi, frazeologik iboralar yolg'iz holda kiritma vazifasida umuman ishlatilmaydi. Shuni ham aytish kerakki, birikma-kiritmalar ko'p jihatdan so'z-kiritmalarga o'xshaydi. So'z birikmalari ham tushuncha ifodalash birligi sanalib, odatda, nominativ funksiyani bajaradi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ko'pchilik ishlarda so'z va birikma-kiritmalar birgalikda olib tekshiriladi. Lekin so'z va birikma-kiritmalar o'rtasida (ayniqsa, parallel kiritmalarda) qator umumiy xususiyatlar bo'lishiga qaramay, ular bir-biridan farq ham qildi. Shunga ko'ra, birikma-kiritmalarni ham so'z-kiritmalar kabi 2 guruhga — parallel va noparallel tiplarga ajratiladi.

Aniqlovchi birikma-kiritmalar. Aniqlovchi birikma-kiritmalar ham sodda yoki murakkab (qo'shma) so'z birikmalari tarzida kelib, biror gap bo'lagiga aloqador qo'shimcha ma'lumotlarni ifodalaydi. Ular ko'proq shaxsning kasbi, unvoni, ijtimoiy holati, xarakteri, millati kabi belgi-xususiyatlarni anglatadi. Bunday kiritmalar ham so'z-kiritmalardagidek qaratqich aniqlovchilar orqali ifodalanmaydi, balki ko'proq qaratqichli so'z birikmalari (qaratqich aniqlovchi — aniqlanmish tipidagi) orqali ifodalanadi: *U shoirga (o'quvchiga) nasihat qiladi*. [Birinci mo'jiza: 175]

Shuningdek, aniqlovchi birikma-kiritmalarning sifatlovchi birikmalar orqali ifodalanishi ham tez-tez uchraydi: *Lirik she'rda shoir "men"idan tashqari lirik personaj ham bo'lishi mumkin (mashhur Nazir ota)*. [Birinci mo'jiza: 182]

Kiritmalardagi grammatik shakllar ularning qaysi gap bo'lagiga aloqadorligini, odatdagi tartib bo'yicha o'rinish o'rini ko'rsatishga xizmat qiladi. Aniqlovchi birikma-kiritmalarni odatdagi tartib bo'yicha qo'llab, asosiy gapni qayta tuzish uchun, ularni izohlanayotgan gap bo'lagi bilan sintaktik munosabatga kiritish uchun zarur grammatik shakllarning bo'lmasligi juda kam uchraydi. Bu xususiyat ko'proq biror hudud, tashkilotlar bilan bog'liq qo'shimcha ma'lumot ifodalaydigan birikma-kiritmalarga xos bo'lib, odatda, matbuot tilida ishlatiladi: *Shuningdek, Barot "O'zbeknoma"dan oldin, "Yangi Xamsa" ("Xamsai panj") yaratganini, bu asar Navoiy asaridan keyingi eng zo'r, eng buyuk asar bo'lganini, "O'zbeknoma" esa uning davomi o'laroq yanada yuqoriroq darajaga ko'tarilgani haqida axborot oldim*. [Ijodni anglash baxti: 611] 1942 yilda O'rta Osiyo davlat dorilfununida (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) filologiya fakulteti ochiladi. Sarvar Azimov unga o'qishga kiradi va 1946 yilda birinchilar qatori uni bitirib chiqadi. [Ijodni anglash baxti: 456]

Bu kiritmalarni asosiy gap sostavida odatdagi gap bo'lagi sifatida qo'llash uchun ularga zarur affikslarni qo'shish talab qilinadi (Solishtiring: Barotning "Yangi Xamsa" yaratganini - Barotning "Xamsai panj" yaratganini yoki O'rta Osiyo davlat dorilfununida - hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti). Ko'rinadiki, bu kiritmalarni o'zlari aloqador gap bo'lagiga nisbatan qanday qo'llanishi va funktsiya jihatdan belgisiz qaratqich aniqlovchi funktsiyasidagi va sifatlovchi-anqiqlovchi funktsiyasidagi birikma-kiritmalar sifatida talqin etish mumkin. Demak, noparallel birikma-kiritmalar ba'zan belgisiz qaratqich aniqlovchi xarakteriga ega bo'lishi bilan aniqlovchi so'z-kiritmalardan ajralib turadi.

To'ldiruvchi birikma-kiritmalar. To'ldiruvchi birikma-kiritmalar ham to'ldiruvchi so'z-kiritmalar kabi kam qo'llanadi. Fikr bayon qilish uchun to'ldiruvchi bo'laklarning bo'lishi ko'pincha zarur shart hisoblanadi. Bu kiritmalarning to'ldiruvchi bo'lak funktsiyasida qo'llanishi qiyinligini ko'rsatadi. Chunki kiritmalarga xos asosiy xususiyat yo'l-yo'lakay izoh va qo'shimcha fakt bayon qilishdan iborat. Shunga ko'ra, noparallel birikma-kiritmalar vositasiz to'ldiruvchi funktsiyasida qo'llanmaydi. Ular vositali to'ldiruvchi funktsiyasida ayrim hollardagina qo'llanishi mumkin. Buni vositali to'ldiruvchilarga xos xususiyat "harakatga boshqa biron yo'l bilan bog'langan"ligi bilan izohlash mumkin. Vositali to'ldiruvchi funktsiyasidagi kiritmalar ko'pincha aniqlovchi-aniqlanmish tipidagi sodda va qo'shma so'z birikmalari orqali ifodalanadi. Ulardagi yetakchi komponent esa, odatda, chiqish va o'rinish payti kelishigi shaklida qo'llanadi: *Uning asarlari ichida "millatchilik" ruhida gilar ham bor, albatta, lekin bugun ham (ya'ni, bugun 60-yillarning boshlarida) o'quvchilarga hech ikkilanmay taqsim qilsa bo'ladiganlari ko'p*. [Ijodni anglash baxti: 52] Muallif ularda fantastika, mistika, ba'zan detektiv janrlarining shiddatli rivojlanuvchi syujetlari, usul va unsurlaridan mohirona foydalangan holda yana o'sha badiiy adabiyotning mangu muammolari — nur va zulmat kuchlari o'rtasidagi kurash, hayot va o'lim masalalarini badiiy tadqiq etar ekan, bu olamda hech narsa — yaxshilik ham, yomonlik ham izsiz yo'q bo'lib ketmaydi, insonning har qanday qilmishi (vahshiylik, qotillik, mahdudlik, ma'naviyatsizlikning jami ko'rinishlari va hokazo) hech qachon jazosiz qolmaydi, deya ta'kidlaydi. [Birinci mo'jiza: 571]

Shuningdek, to'ldiruvchi birikma-kiritmalar ko'proq ko'makchili konstruksiyalar holda ham qo'llanadi: *U qiziga ulug' odam bo'lib yetishsin, deb Kibriyo degan ism qo'yadi (arabcha Akbar so'zi bilan o'zakdosh).* [Birinci mo'jiza: 316] *Ayni chog'da oliy o'quv yurtlari uchun yaratilgan "XX asr o'zbek adabiyoti tarixi" degan kitobi ham (boshqa mualliflar bilan birga) bu sohadagi tadqiqotlarni umumlashtiruvchi asar bo'ldi.* [Birinci mo'jiza: 365]

Hol birikma-kiritmalar. Hol funksiyasidagi kiritmalar ko'pincha kengayib kelgan so'z birikmalari, ko'makchili konstruksiyalar bilan ifodalanib, ba'zan ajratilgan oborotlarga, ergash gaplarning ayrim tiplariga o'xshab ketadi. Ular, odatda, asosiy gapdagi harakatni anglatuvchi bo'laklar yoki u bilan biror jihatdan bog'liq gap bo'laklariga aloqador bo'lib, ko'pincha prepozitiv holda ham qo'llanadi. Hol birikma-kiritmalar ish-harakat, holat yoki belgi-xususiyatlarining qanday yuz berishini, sabab, o'rin, payt, maqsad kabi qo'shimcha ma'nolarni ifodalaydi. Shunga ko'ra ularning ifodalanish shakllari ham turlicha bo'ladi. Birikma-kiritmalarining hokim so'zi ravishdoshning *-b(-ib) -mas, -dan* shakli orqali ifodalanganda ular, odatda, ravish holi funksiyasida kelgan bo'ladi: *Lekin shuning barobarinda, u xalq qayg'usi bilan (faqat hech bir sinfga ayirmasdan) yozg'uvchi "xalqchi" (narodnik) bir shoirdir.* [Ijodni anglash baxti: 19] *Faqat, "Ovro'pa muzika bilimi boshlang'ich nazariyadan (nota o'rganishdan) iborat emas, uning garmoniya (ohang ilmi), kontrpunkt singari juda muhim, lekin og'ir pog'onalari bor.* [Birinci mo'jiza: 19]

Birikma-kiritmalar o'xshatish, qiyoslash ma'nolarini ifodalaganda *-day (-dek)* shakllari va kabi, singari, o'xshash, go'yo tipdagi yordamchi so'zlar orqali ifodalanib, ravishdosh oborotlarga o'xshab ketadi: *Ularning ayrimlari tildagi, tarixiy traditsiyalaridagi umumiylikka ko'ra bir-birlariga yaqin bo'lsalar-da (ozarbayjon, o'zbek, tojik adabiyotlari yoxud Boltiq bo'yi xalqlarining adabiyotlari kabi), hali hammalari birgalikda sovet adabiyoti deb atalmish yagona organizmni vujudga keltiradigan darajaga yetishgan emas edilar.* [Birinci mo'jiza: 71]

Shuningdek, ular ko'pincha ko'makchi va yordamchi funksiyasidagi so'zlar (*masalan, bilan, holda, sifatida, yo'sinida, shaklida, uslubida*) orqali ifodalanadi: *Mohir aktyor bir-ikki detal bilan o'z qahramonining qiyofasi va hatto ichki dunyosini ochib bergan (masalan, globusni tepib sindirishi).* [Ijodni anglash baxti: 585]

Hol birikma-kiritmalar *keyin, so'ng, ilgari, oldin, oxirida, uchun, bilan* kabi ko'makchilar bilan birgalikda kelib, payt, maqsad ma'nolarini anglatadi: *Shoirming 1955 - yilda yozilgan "Qaymoqday she'r" degan asari bor. (Bu she'r shoir hayotligida bosilmagan edi, keyinchalik shoir arxividan olinib, e'lon qilindi)* [Birinci mo'jiza: 222] Yana shuni ham aytish kerakki, hol birikma-kiritmalarining matbuot tilida hech qanday grammatik ko'rsatkichlarsiz ham qo'llanish hollari uchraydi: *Dorilmualliminni bitirgach (1925), Dog'istondagi Darbana, keyincha Bo'ynoq shaharlarida bir necha yil o'qituvchilik qiladi, ayni choqda, Boku Oliy pedagogika institutining sirtqi bo'limida o'qiydi.* [Birinci mo'jiza: 300] *Grajdanlar urushi yillarida har ikki adabiyotda ilgari mavjud bo'lmagan siyosiy lirika rivojlandi (Hamza va Saken Sayfullin ijodida), davr oldinga surgan amaliy masalalarga zudlik bilan badiiy javob topish jarayonida dramaturgiya paydo bo'ldi va rivojlandi.* [Birinci mo'jiza: 74] *Yaqinda "Sharq yulduzi" jurnalida (1961 yil 9-son) S. Mamajonovning "Poeziyada lirik qahramon masalasi" degan maqolasi bosilib chiqdi. S. Mamajonov materialni durust biladigan va eng muhimi, adabiyotni his qila oladigan tanqidchilardan biri.* [Birinci mo'jiza: 181]

Gap-kiritmalar. Gap kiritmalar so'z-kiritma va birikma-kiritmalarga nisbatan ko'proq qo'llanadi. Gap-kiritmalar nisbatan mustaqil, grammatik va intonatsion jihatdan shakllangan sintaktik konstruksiyalardan iborat bo'lib, gap ichida, oxirida ham qo'llana oladi. Biroq ular asosiy gap strukturasidan tashqarida, ammo unga mazmunan aloqador bo'lgan mustaqil gap sifatida qo'llanishi jihatidan so'z-kiritma va birikma-kiritmalardan (manba ko'rsatuvchi so'z-kiritma va birikma-kiritmalarni hisobga olmaganda) ajralib turadi. Ular o'rtasidagi munosabatni ma'lum darajada yonma-yon kelgan mustaqil gaplar o'rtasidagi munosabatga o'xshatsa ham bo'ladi.

Gap-kiritmalar asosiy gap ichida va oxirida ham, gaplar orasida va alohida abzas tarzida ham kela oladi. Gap oxirida yoki gaplar o'rtasida o'rin olgan gap-kiritmalar, odatda butun gap mazmuniga yoki bir nechta gaplar, hatto butun abzas mazmuniga aloqador bo'lib kelishi mumkin.

Gap-kiritmalar sintaktik konstruksiya ichida kelganda, odatda, gapning biror bo'lagi yoki biror qismiga oid bo'lib, ularning kiritilganlik xarakteri gap oxirida kelgan kiritmalarga nisbatan kuchli bo'ladi.

TILSHUNOSLIK

Gap-kiritmalar ko'pincha darak gaplar strukturasi ichiga kiritilgan yoki darak gaplar mazmuniga aloqador bo'ladi. Chunki darak, xabar intonatsiyali sintaktik konstruksiyalar sostavida undov, so'roq xarakteridagi gap-kiritmalarning, undov yoki so'roq gaplar ichida darak gap shaklidagi kiritmalarning qo'llanish hollari ham mavjud. Bu gap-kiritmalarning mustaqil sintaktik konstruksiyalar sifatida o'z strukturasi va intonatsiyasiga egaligidan, asosiy gapga odatdagi sintaktik aloqalar yo'li bilan bog'lanmasligidan kelib chiqadi. Shuning uchun ham ajratilgan bo'lak va ilova konstruksiyalar, kirish va ergash gaplar xarakteriga ega bo'lgan ayrim gap-kiritmalarni asosiy gap strukturasi tashqariga chiqarib qo'llash ham mumkin. Bu xususiyat so'z va birikma-kiritmalarda deyarli uchramaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kirish kengaytiruvchilar gapda muallifning asosiy fikrga munosabatini bildiruvchi va uni ta'kidlovchi vosita sifatida faoliyat ko'rsatadi. Bu kengaytiruvchilar matnini yanada ifodali va tushunarli qilishda muhim rol o'ynaydi. Kiritma kengaytiruvchilar esa fikrga qo'shimcha ma'lumot qo'shib, uning mazmunini boyitish bilan birga, o'quvchining asarga nisbatan yanada chuqurroq tushunchaga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Kirish bo'laklar mavzusida juda ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va hozirgi kunda ham olib borilmoqda. Jumladan, D.Xudoyberganovning "Badiiy matnda kirish va kiritmalarning qo'llanishi" maqolasini misol keltira olamiz. Mazkur maqolada T.Malikning mashhur asarlaridan biri "Shaytanat: asarida qo'llanilgan kirish va kiritma kengaytiruvchilarning stilistik va semantik jihatdan o'rni hamda ahamiyati tahlil qilingan. Shu bilan bir qatorda mazkur kengaytiruvchilarning badiiy asardagi funksional imkoniyatlari kengroq ko'lamda o'rganilgan.

NATIJ VA MUHOKAMA

Demak, kiritmalar sintaktik jihatdan bog'liq bo'lmisligidan qat'iy nazar, bajarayotgan funksiyasi, mazmuni orqali asosiy gap bilan munosabatda bo'ladi. Shu bilan birga, ular o'ziga xos struktura va intonatsiyani, mustaqillikni ham yo'qotmaydi. Binobarin, gap-kiritmalar o'zlari kiritilgan asosiy sintaktik konstruksiyaning mazmuni va intonatsiyasidan qat'i nazar, uning sostaviga darak, so'roq va undov gaplar tarzida kiritilishi mumkin: *Abdulla aka "qayerga borsam nosqovoqdek belimga tugib yursam, ona tilimni qo'yib, xotin tilida gaplashsam, yana nima qil deysiz?" debdilar. (Uyda yolg'iz qolishganda, Abdulla aka Kibriyo opa bilan ko'pincha tojik tilida gaplashgan).*[Ijodni anglash baxti: 325]


Yuqoridagi keltirilgan gaplardagi kiritmaning asosiy gap mazmuniga u yoki bu jihatdan aloqador izoh va qo'shimcha ma'lumot ifodalab kelishi aniq ko'rinib tursa-da, ular asosiy sintaktik konstruksiyadan o'ziga xos mustaqil struktura va intonatsiyasi bilan farq qiladi.

Undov yoki so'roq intonatsiyali gap-kiritmalar sintaktik konstruksiya ichida kelganda tuzilishi jihatdan ko'pincha sodda va qisqa bo'ladi.

Sintaktik konstruksiya ichida kelgan kiritmalar, odatda, uning bir hismi yoki biror bo'lagiga aloqador bo'ladi. Kiritma yordamida izohlanayotgan bo'lak yoki qism esa asosiy gapni shakllantirishda qatnashayotgan komponentlardan biri, fikrning bir momentigina bo'lib, gapning boshqa qismi bo'laklari bilan bog'liqdir.

Ozod Sharafiddinov o'z asarlarida kiritma so'zlar, birikma kiritmalar va kiritma gaplardan samarali foydalanadi. Ularni asarlarning turli joylarida, jumladan, gap ichida, gap oxirida yoki alohida abzas sifatida kiritadi. Bu kiritmalar muallifning fikrlarini yanada aniq va qiziqarli ifodalashga yordam beradi. Gap boshida kiritma so'zlar o'quvchiga muallifning asosiy fikrini yetkazishda va izoh berishda muhim rol o'ynaydi. Kiritmalar asarning umumiy mazmunini boyitadi va o'quvchini muallifga xos uslub bilan tanishtiradi. Bu jarayon asarning ritmini o'zgartirib, o'quvchini yanada ko'proq fikrga jalb qilish imkonini yaratadi. Olimning ushbu uslublari asarlarining adabiy kuchini oshiradi.

Ozod Sharafiddinov o'z asarlarida taxminan kiritma so'zlar, birikma kiritmalar hamda kiritma gaplardan qay darajada foydalanganligi diagrammasi



XULOSA

Misollardan ko'rinadiki, kiritmalar sintaktik konstruksiya ichida sodda gapning turli tiplari shaklidagi ikkitadan ortiq komponentlar yordamida tuzilgan murakkab gaplar tarzida ham kelishi mumkin ekan. Bunday kiritmalar asosiy gapda tilga olingan biror shaxs, narsa yoki hodisa haqida kengroq ma'lumot berish, ular bilan bog'liq turli (ba'zan bir necha xil) faktlarni, o'zaro aloqador bo'lgan, biri ikkinchisidan kelib chiqadigan izohlarni bayon qiladi.

Taniqli adibimiz Ozod Sharafiddinovning "Birinci mo'jiza" va "Ijodni anglash baxti" asarini hamda adabiy-tanqidiy maqolalarini sintaktik tahlil qilish jarayonida quyidagilarni aniqlashga erishildi. Ushbu asarda kiritmalar undov va so'roq gap tarzida juda kam qo'llangan. Shuningdek, kiritmalar qo'shma gaplarga nisbatan sodda gaplar shaklida ko'proq uchraydi. Kiritmalar gapda odatdan tashqari o'rinish tartibiga ega bo'lib, sodda, qo'shma va murakkablashgan gaplar tarkibidagi istagan gap bo'lagi yoki qismidan so'ng, so'z va qo'shimchalar orasida o'rinishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Askarova U. Ozod Sharafiddinov asarlarining sintaktik xususiyatlari. Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. — Toshkent, 2022.
2. Askarova, U. (2025). Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning uyushishi (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida). *Farg'ona Davlat Universiteti*, 31(1), 83. Retrieved from <https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/5320>
3. Askarova U. (2025). Gapda uyushiq bo'laklarning o'rni va ahamiyati (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida). *Farg'ona Davlat Universiteti*, 31(3), 130.
4. Hamrayeva H. Ozod Sharafiddinov publitsistikasining tili va uslubi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. — Toshkent, 2009.
5. Hamrayeva H. Ozod Sharafiddinov publitsistikasining til xususiyatlari. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali. — Toshkent, 2010.
6. Karimov B. Chin ma'nodagi fidoyi. Ozod Sharafiddinov zamondoshlari xotirasida. — T.: O'zbekiston, 2007.
7. Oripov A. Yuksakka chorlovchi e'tiqod. Ozod Sharafiddinov zamondoshlari xotirasida. — Toshkent: O'zbekiston, 2007.
8. Qosimova X. Turli tizimdagi tillarda kirish bo'laklar va ularni ifodalovchi sintaktik vositalar. "PEDAGOG" jurnali. — Toshkent, 2024.
9. Toshaliyev I. Hozirgi o'zbek adabiy tilida kiritma konstruksiyalar. —T.: Fan, 1976.
10. Xolbekova D.
11. Xudayberganova D. Badiiy matnda kirish va kiritmalarning qo'llanishi. "Tamaddun nuri" jurnali. — Toshkent, 2024.
12. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi O'zbek adabiy tili. — T.: Fan, 1966.
13. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. — T.: "Sharq", 2004.
14. Sharafiddinov O. Birinchi mo'jiza. — T.: Adabiyot va san'at, 1979.